



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 25-fevral

25-11-163-F/25

Farg'ona tumani hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlari to'g'risida"gi PF-29-son Farmoni, "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-31-son Qarori hamda 2021-yil 24-dekabrdagi "Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-62-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida:

1. Farg'ona viloyat hokimining 2025-yil 24-fevral kungi 62-11-0-F/25 sonli farmoyishi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Vakant lavozimlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi viloyat filiali bilan hamkorlikda o'tkazilgan ochiq tanlov yakunlariga ko'ra, Farg'ona tumani Konchilar mahalla fuqarolar yig'inida tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchisi etib **Zayniddinov Zayniddinxo'ja Ziyoviddin o'g'li** tayinlansin.
3. Lavozimga tayinlangan hokim yordamchisining oylik ish haqi miqdorlari va shart-sharoitlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 3-dekabrdagi PQ-31-son qarorida ko'rsatib o'tilgan tartibda belgilansin.
4. Tuman hokimligi tashkiliy kadrlar guruhi hamda tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi bilan hamkorlikda **1 kun muddatda** lavozimga tayinlangan hokim yordamchisi bilan mehnat munosabatlariга kirishish bo'yicha belgilangan tartibda hujjatlarni (mehnat shartnomasi) rasmiylashtirsin.

5. Tuman hokimligi Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hokim yordamchilariga oylik ish haqi mablag‘larining to‘g‘ri to‘lanishi ustidan to‘liq nazorat o‘rnatsin.

6. Ushbu farmoyish ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘ribbosari O.Abduraximov zimmasiga yuklansin.

**Farg‘ona tuman
hokimi**



**INOMOV
XAMIDULLO.TADJIYEVICH**